

## TYUTORLIK - TA'LIMNING ZAMONAVIY MODELI SIFATIDA

### РЕПЕТИТОРСТВО КАК СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ

### TUTORING AS A MODERN MODEL OF EDUCATION

**Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi**

*FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti  
madinabonumuhhammadjonova07@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim tizimiga tyutorlik faoliyatining joriy etilishi, uning jamiyat taraqqiyoti va ta'lim sohasida rivojlanishlarga erishish borasida ahamiyat kasb etadigan jihatlari hamda tyutorlik faoliyatining zamonaviy modeli tavsifi haqida ma'lumot va tushuntirishlar keltirilgan. Jamiyat rivojlanar ekan, unda jamiyat istiqomat qilar ekan, ta'lim tizimini takomillashtirish va sifatli bilim berish dolzarb masalalardan bo'lib qolaveradi.*

**Key Words:** *zamnaviy ta'lim, model, tyutorlik, shaxs rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti, kadrlar tayyorlash, istiqbollar.*

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения и разъяснения о локализации репетиторской деятельности в системе образования, ее аспектах, важных для развития общества и развития в сфере образования, а также описание современной модели репетиторской деятельности. По мере развития общества, пока общество в нем живет, совершенствование системы образования и обеспечение качественного образования остаются актуальными вопросами.

**Ключевые Слова:** *современное образование, модель, репетиторство, развитие личности, развитие общества, подготовка кадров, перспективы.*

**Abstract:** *This article provides information and explanations about the localization of tutoring activity in the educational system, its aspects that are important for the development of society and development in the field of education, as well as the description of the modern model of tutoring activity. As the society develops, as long as the society lives in it, the improvement of the education system and the provision of quality education remain urgent issues.*

**Key Words:** *modern education, model, tutoring, personal development, community development, personnel training, prospects.*

Har qanday jamiyatning yuqori pog'onalarga ko'tarilishi va istiqbollarga erishishi uchun unda barcha jamiyat a'zolari birdek harakat qilishi zarur. Xususan, bunda bilimli va salohiyatli shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm o'rgatish– bu faqat boshqalarni o'qitish va tarbiyalashgina emas, balki o'z–o'zini shakllantirish hamdir. Jamiyat o'z–o'zini shakllantiruvchi ilmga intilish faoliyatini ta'kidlovchi paradigmaga o'tishga mahkumdir. Bunday o'tishning yuzaga chiqishidagi asosiy shartlariga yangi kompyuter va innovatsion texnologiyalarni uzluksiz egallab borish asosiga qurilgan mo'tadil ishlaydigan

iqtisodiyot, zaruriy qo'llab-quvvatlashlarga ega bo'lgan jamiyat va samarali ishlaydigan ilmiy-ijtimoiy institutning mavjudligi, bu institut o'zining barcha asosiy maqsad va vazifalarini turli tizimlar va tizimostilar orqali kasbiy ta'limgacha vaqtida va kasbiy ta'lim vaqtida o'rgatishni amalga oshirishga qaratishini kiritishimiz mumkin.

Ta'limni zamonaviylashtirish va uning samaradorligini ta'minlash borasida ko'plab izlanish va tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yoshlarga mazkur usuldag'i ta'limni yetqizish nafaqat ularni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishlari uchun, balki egallagan puxta bilimlari orqali dunyo bo'ylab o'z yurtlarining dovrug'ini doston etishlari va rivojlanishiga hissa qo'shishlariga yo'l ochishi mumkin. Shaxs – "Kadrlar tayyorlash milliy modeli"ning muhim tarkibiy qismi, kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida belgilab berilgan. Bu esa respublikamizda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yo'lga qo'yilishi uchun zarur asoslarni yaratib berdi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmاسını o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o'qishga yo'naltirilgan [6, 58-64]. Xorijiy tajribalarni o'rganish orqali bilishimiz mumkinki, zamonaviy ta'limda o'qituvchilar bilan bir qatorda yangi faoliyat egalari – tyutorlar – ga ham ehtiyoj sezilarli darajada yuqoridir. Zamonaviy tyutor kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallahga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Tyutor bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallahshari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Zamonaviy tyutor shaxsi modeli ta'lim tizimini modernizatsiyalash va taraqqiy ettirish borasida yuzaga keladigan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi, ma'lum sifatlarni ta'riflovchi hamda mutaxassisning o'z-o'zini rivojlantirib borishini aks ettiruvchi tamoyillarni belgilashga xizmat qiladi.[4,144-149]

Tyutorga qo'yiladigan talablar asosida uning modelini ishlab chiqishda oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan quyidagi holatlar asos uchun qabul qilindi:

- tyutorning faoliyat sohalari: ta'lim; boshqaruv.
- tyutorning faoliyat turlari: o'quv; metodik; tarbiyaviy; tashkiliy; ilmiy (rahbarlik); kadrlar bilan ishslash; tadbirkorlik; ekspertlik va boshqalar.
- tyutor faoliyat yurituvchi muassasalar: oliy ta'lim; ta'limni boshqarish organlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son hamda "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son qarorlari asosida Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqildi.

Ushbu Nizom yuqorida keltirib o'tilgan qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish tartibi va yo'nalishlarini belgilab beradi.

Mufassal qilib keltiradigan bo'lsak, har bir inson o'z yurtidagi barcha sohalarning ravnaq topishi, uni dunyoga e'tirof etilishini istaydi, bu maqsad yo'lida ko'plab harakatlar qiladi. Mazkur harakatlar ichidan eng mashaqqatlisi deb "ma'nan yetuk yoshlarni tarbiyalash"ni olishimiz mumkin. Yosh avlodga sifatli ta'lim berish va ularning ma'nan yetuk, sog'lom fikrli va o'z sohasining ustasi bo'lishi uchun pedagog o'qituvchilar bilan bir qatorda tyutorlarning ham mas'uliyati katta. Tyutorlar talabalar bilan nafaqat ta'lim olish masalalarida balki ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tarbiyalash ishlari bilan shug'ullangani sababli bu kadrlarni oliv ta'limga keng jalb etish ta'lim tizimida yuqori darajada o'sishga erishish uchun yordamchi bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tyutorskoye deystviye v obrazovani: teoriya, praktika, podgotovka kadrov: uchebno-metodicheskoye posobiye / A. N. Bogachev, V. S. Silitskiy; Yujno-Uralskiy gosudarstvennyiy gumanitarno-pedagogicheskiy universitet. – [Chelyabinsk]: Yujno-Ural'skiy nauchniy sentr RAO, 2021. – 184 s.
2. Tyutorskoye soprovojdeniye obrazovatelnoy deyatelnosti: uchebnoye posobiye. Praktikum / M. A. D'yachkova, O. N. Tomsk; FGBOU VO «UrGPU». – Yekaterinburg, 2016. – 184 s.
3. Tyutorstvo v obrazovani: ot issledovaniy k praktikam [Elektronniy resurs]: monografiya – El. izd. - Elektron. tekstoviye dan. (1 fayl pdf: 249 s.). - Astaxova O.V., Belan N.V., Borovkova T.I., Goncharova A.V., Goryachenko Ye.A. i dr. 2020.
4. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 144-149.
5. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2344-2348.
6. Urinova Nilufar Mukhammadovna. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 58–64. <https://doi.org/10.37547/pedagogicscrjp-04-03-12>
7. O'ranova N.M; Muxammadjonova M.I - "Talimda tyutorlik faoliyatining o'mi va ahamiyatli jihatlari" - Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son\_8-to'plam\_Dekabr-2023
8. O'ranova N,M; Muxammadjonova M.I – "Edge Hill universitetida tyutorlik tizimi xususiyatlari" – Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023
9. [http://gep.ist.utl.pt/html/tutoring\\_principals](http://gep.ist.utl.pt/html/tutoring_principals)